
QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Qonunchilikdagi yangiliklar

“Toshkent shahrida Amerika texnologiyalar universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarori (PQ-261-son, 17.07.2024 y.) qabul qilindi

Qarorga ko’ra, Toshkent shahrida Amerika texnologiyalar universiteti tashkil etiladi.

Muhandislik, sog’liqni saqlash, axborot texnologiyalari, arxitektura va dizayn, iqtisodiyot va moliya, xalqaro munosabatlar sohalari uchun oliy ma’lumotli kadrlarni xalqaro standartlar darajasida tayyorlash Universitetning asosiy faoliyat yo’nalishlaridan biri etib belgilan.

- Universitet nodavlat oliy ta’lim tashkiloti hisoblanadi hamda o’z faoliyatini 2024/2025 o’quv yilidan amalga oshiradi.

Universitetda talabalarni o’qitish to’lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi hamda qabul parametrlari va talabalarni o’qitish uchun to’lov-kontrakt summasi Universitet tomonidan belgilanadi.

Universitetga abituriyentlar qabuli va bitiruvchilar attestatsiyasi Universitet tomonidan belgilangan talab va tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Universitet to’liq akademik, moliyaviy va tashkiliy mustaqil OTM hisoblanadi.

- Universitet bitiruvchilariga Arizona davlat universitetining yoki AQShda tan olinadigan hamkor xorijiy oliy ta’lim tashkilotining diplomi beriladi. Bunda, bitiruvchilarga berilgan diplom O’zbekistonda tan olinadi.

Universitetda qo’shma ta’lim dasturlarining xorijiy universitetda o’qish qismini bakalavriatda “3+1”, magistraturada “1+1” va boshqa shaklda, jumladan, masofaviy tarzda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

So’x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-07-31 16:04:54